

## RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI

**Rajabova Nilufar Bahodir qizi**

*Buxoro davlat universiteti*

*Iqtisodiyot va turizm fakulteti*

*3-bosqich talabasi*

**Raxmatullayeva Feruza Mubinovna**

*Buxoro davlat universiteti*

*Iqtisodiyot va turizm fakul'teti*

*Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti,*

*i.f.n.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotda platformalarning mohiyati, jumladan, Uber, Airbnb, Amazon platformalarining iqtisodiyotidagi roli va uning is'temolchilarga ta'siri haqida qisqacha ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *raqamli iqtisodiyot,raqamli platformalar,innovatsion platformalar, online platformalar, sun'iy intellekt*

**Abstract.***This article provides a brief overview of the role of digital economy platforms, such as Uber, Airbnb, and Amazon, in the platform economy and their impact on consumers.*

**Key words:** *innovative platforms, online platforms,digital economy,digital platforms,digital transformation,“Digital Uzbekistan-2030”,robotics,artificial intelligence,“super platforms”,industry effect,transaction platforms.*

**Аннотация:** В этой статье кратко рассматривается роль платформ цифровой экономики, таких как Uber, Airbnb и Amazon, в платформенной экономике и их влияние на потребителей.

**Ключевые слова:** *Инновационные платформы, Онлайн-платформы, Цифровая экономика, Цифровые платформы, Цифровая трансформация, «Цифровой Узбекистан-2030», Робототехника,Искусственный интеллект, Суперплатформы ,Эффект отрасли, Транзакционные платформы*

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarali texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat va elektron biznes hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Huddi shuning uchun ham, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, respublikamizda bir qancha muhim qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Muroja'atnomasida mamlakatimizda eng muhim ustivor vazifalar maqsadida raqamli iqtisodning rivojlanishi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tdi: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish,yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va

madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatdosh iqtisodiyotini shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi,zamonaviy bosqichga ko'tarish".<sup>5</sup>

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Strategiya O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyot samaradorlikni oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llabquvvatlaydi. Iqtisodiy jarayonlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish samaradorlikni oshiradi va global qiymat zanjirlarida ishtirok etish imkonini beradi. Raqamlashtirish tranzit xarajatlarini kamaytirish, axborot assimetriyasini bartaraf etish, keng miqyosli va tarmoq natijalari iqtisodidan foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bu omillar tufayli raqamli iqtisodiyot bozorlar va xizmatlar-ta'lif, sog'liqni saqlash, kredit, resurslarni va investitsiyalarni ko'paytirish uchun kengroq imkoniyatlarga ega bo'ldi.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko'prog'ida beqiyos o'zgarishlar keltirib chiqarishi ta'kidlanmoqda. Jumladan, Jahon banki ekspertlari fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko'payishi milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmini har yili o'rtacha 0,4-1,4 foizga oshirish imkonini beradi<sup>6</sup>.

Uber, Amazon va Airbnb kabi platformalar, raqamli iqtisodiyotning muhim qismlarini tashkil etadi. Ular iqtisodiy o'sish va global tarmoqlarda tijoratni qayta shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ularning har biri o'zining maxsus xususiyatlariga ega va foydalanuvchilarga, sotuvchilarga va xizmat ko'rsatuvchilarga o'zaro bog'lanish imkoniyatlarini yaratadi.

Uber — dunyo bo'ylab keng tarqalgan transport xizmati platformasi. U, aslida, "gig economy" yoki "ishlab chiqish iqtisodiyoti"ning asosiy qismlaridan biri hisoblanib, odamlar va haydovchilarni o'zaro bog'lab turadi. Uberning global bozori 2023 yilda taxminan \$94 milliardga yetdi. U 900+ shahar va 10+ mamlakatda faoliyat yuritadi.

<sup>5</sup>[https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/22/1716279456\\_1.pdf](https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/22/1716279456_1.pdf)

<sup>6</sup>XaydarovBaxromXolmuradovich. Iqtisodiyislohotlarnirovjlantirishdakambag'allikniqisqartirish.  
Iqtisodiyotvata'lif 2021 4-soni. 288-292 b

2022 yilda Uber haydovchilari tomonidan 6,9 milliarddan ortiq transport xizmatlari ko'rsatilgan. Uber, o'zining turli xizmatlari (Uber Eats, Uber Freight, Uber for Business) orqali iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Uyushmagan ishchilarni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinalarini yaratish va transport tarmog'ini yanada soddalashtirishda katta rol o'ynaydi. Uberning transport tizimi samarali va arzon narxlarda xizmat ko'rsatish imkoniyatini taqdim etadi.

Amazon, o'zining onlayn savdo platformasi sifatida, global e-tijoratda birinchi o'rinda turadi. Bu, nafaqat tovarlar sotilishi, balki bulutli hisoblash va boshqa raqamli xizmatlarni taqdim etadi. 2023-yil yakuniga ko'ra, Amazonning yillik daromadi \$500 milliarddan oshdi. Uning global ishchi kuchi 2023-yilda 1,5 milliondan ortiq xodimni tashkil etdi. Amazon Web Services (AWS), bulutli hisoblash xizmatlari orqali, kompaniya global IT infratuzilmasini kuchaytiradi va bu soha bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Amazonning global tarmog'i har yili 2 milliarddan ortiq buyurtmalarni qayta ishlaydi. Kichik bizneslar va startaplar uchun global bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratadi. Savdo va logistika tizimini o'zgartirib, elektron tijoratni kengaytiradi.

Airbnb, dunyoning turistik bozorida onlayn uy-joy va mehmonxona xizmatlarini taqdim etuvchi platforma bo'lib, foydalanishdagi qulaylik va narxlarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Airbnb 2022-yilda 202 million mehmonni qabul qildi va kompaniyaning yillik daromadi \$8 milliarddan oshdi. Airbnb platformasi orqali 220 davlat va mintaqalarda uylar va xonalar ijaraga berilmoqda.

Platformalar raqamli iqtisodiyotda quyidagi ahamiyatlarga ega: Uber va Airbnb kabi platformalar, foydalanuvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini beradi. Amazon va Airbnb kabi platformalar, onlayn savdo va turizmni global tarmoqlarga kengaytiradi. Bu, kichik bizneslar uchun katta bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratadi. AWS (Amazon), transport tizimlarining samarali ishlashi (Uber), va bulutli platformalar (Airbnb) orqali texnologiyalarni rivojlantiradi.

Raqamli iqtisodiyot platformalar orqali tez rivojlanmoqda, platformalar resurslarni yoki xizmatlarni ko'rsatuvchi va foydalanuvchi o'rtasida moslikni yaratadi. Masalan, Amazon platformasi orqali turli sotuvchilar o'z mahsulotlarini global bozorga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lsa, bu ularning resurslarni optimallashtirishi va yangi bozorlarga chiqishini ta'minlaydi.

Uber platformasi haydovchilar va foydalanuvchilar o'rtasida samarali va tezkor aloqani ta'minlaydi, shuningdek, transport tarmog'ini samarali boshqarishga yordam beradi.

Platformalar, an'anaviy biznes modellari bilan solishtirganda, ancha kam resurs sarflab, juda keng bozorlarni yaratish imkoniyatini beradi. Misol uchun, Airbnb o'zida global mehmonxona va turizm bozorlarini yaratgan va shu bilan birga, yirik mehmonxona tarmoqlariga qarshi mustaqil uy-joy ijarasi modelini rivojlantirgan.

Uber va Airbnb kabi platformalar orqali xizmat ko'rsatuvchilarni baholash va fikr-mulohazalar asosida yaxshilanish amalga oshadi. Bu esa foydalanuvchilar uchun ko'proq mos, yuqori sifatlari xizmatlar taqdim etishga yordam beradi. Platformalar

orqali oson va tezkor to'lov tizimlari, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash xizmatlari foydalanuvchilarga yanada qulaylik yaratadi. Amazonning o'z to'lov tizimi (Amazon Pay), shuningdek, tezkor yetkazib berish va qaytarish siyosati, kompaniyani global bozorda raqobatbardosh qiladi.

### 1-jadval

#### **Platformalar faoliyat yo'nalishlari haqida tushuncha<sup>7</sup>**

Platformalar nomi	Faoliyat yo'nalishlari
Amazon	<p>Amazon Marketplace – turli tovarlarni sotish va sotib olish imkoniyati.</p> <p>Amazon Web Services (AWS) – bulutli texnologiyalar va IT xizmatlari.</p> <p>Amazon Prime – videolar, musiqa, bepul yetkazib berish va boshqa imtiyozlar.</p> <p>Kindle – elektron kitoblar va nashriyot xizmatlari.</p> <p>Amazon Logistics – global yetkazib berish va logistika tizimi.</p>
Uber	<p>Uber Rides – taksi xizmatlari, shaxsiy haydovchilar.</p> <p>Uber Eats – oziq-ovqat yetkazib berish xizmati.</p> <p>Uber Freight – yuk tashish va logistika xizmati.</p> <p>Uber Green – ekologik toza elektr transport xizmatlari.</p>
Airbnb	<p>Uy-joy ijarasi – qisqa va uzoq muddatli ijaraga uy yoki kvartira topish.</p> <p>Tajriba xizmatlari – mahalliy tadbirlar va sayyoqlik ekskursiyalarini bron qilish.</p> <p>Airbnb Luxe – hashamatli uy-joylar ijarasi.</p>

“Gig economy” (so'nggi yillarda ko'plab odamlar uchun asosiy ish manbai bo'lgan bo'sh ish o'rirlari va qisqa muddatli xizmatlar) va platformalar bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lib, Uber haydovchilari, Airbnb egalari, va Amazonning xodimlari, an'anaviy ofis ishlaridan farqli o'laroq, o'z ish soatlarini mustaqil ravishda tanlashlari mumkin. Bu moslashuvchanlik, xususan, oilaviy yoki boshqa shaxsiy sabablar bilan ishslashni istaganlar uchun juda qulay.

Gig iqtisodiyotining rivojlanishi, odamlar uchun o'z mehnatlarini boshqarish va mustaqil ishchi sifatida ishslash imkonini yaratdi. Uber va Airbnb tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar, bu ishchilarni osongina topish va mustaqil ish bilan ta'minlash uchun juda qulaydir.

Airbnb va Uber o'z platformalarida ekologik toza transport va yashash joylarini tanlash imkoniyatlarini taqdim etishmoqda. Shuningdek, bu platformalar, ijtimoiy tarqatish va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlash uchun ko'plab yangi dasturlarni ishlab chiqmoqda.

### 2-jadval

#### **Platformalarning 2024 yildagi sof foydasi (AQSH dollarda)<sup>8</sup>**

<sup>7</sup> <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/529>

<sup>8</sup> <https://www.statista.com/topics/846/#topicOverview>

Platformalar nomi	Sof foyda
Amazon	15,3 mlrd
Uber	8,2 mlrd
Airbnb	2,219 mlrd

O'zbekistonda Amazon, Airbnb va Uber kabi raqamli platformalarni joriy qilish bir necha jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi: Amazon – mahalliy tadbirkorlar va hunarmandlarga mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarish imkoniyatini beradi. Eksport hajmini oshirib, O'zbekiston brendlarini dunyoga tanitadi. Airbnb – mehmonxonalarga muqobil turar joy bozorini rivojlantirib, kichik tadbirkorlar (xususiy uy egalariga) qo'shimcha daromad topish imkonini beradi. Turizm sohasini yanada jonlantiradi. Uber – transport sohasida raqobatni oshirib, haydovchilar uchun qo'shimcha ish o'rirlari yaratadi va yo'lovchilar uchun qulay xizmat taklif qiladi. Yirik global platformalar joriy etilishi bilan xorijiy investorlar O'zbekistonga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Raqamli texnologiyalar rivojlanib, IT sohasida yangi ish o'rirlari va startaplar paydo bo'ladi.

Raqamli platformalar avtomatlashtirish va optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Misol uchun, Amazonning logistika tizimi, tovarlarni qayta ishslash va tarqatish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, AWS kabi bulutli hisoblash xizmatlari kompaniyalarga o'z operatsiyalarini tez va samarali boshqarishga imkon yaratadi. Platformalar, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish va global tarmoqlarni yaratish, balki ishslash sharoitlarini o'zgartirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish, va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali global iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Ular odamlarning hayotini soddalashtirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, va xizmatlar sifatini oshirish orqali raqamli iqtisodiyotning markaziy unsurlariga aylanishmoqda. Uber, Amazon va Airbnb kabi platformalar, raqamli iqtisodiyotning yangi modelini shakllantiradi, o'zaro aloqalarni soddalashtiradi, yangi ish imkoniyatlari yaratadi va global bozorlarda iqtisodiy faollikni oshiradi. Ularning har biri o'zining aniq iqtisodiy ta'siriga ega bo'lib, raqamli iqtisodiyotning kelajagiga katta hissa qo'shmaqda. Uber, Amazon, va Airbnb kabi raqamli platformalar global bozorga kirishni osonlashtirib, xizmatlar va tovarlarni yanada samarali va tezkor taqdim etish imkonini beradi. Ular foydalanuvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida yangi, moslashuvchan iqtisodiy tizimlarni yaratadi. Bu tizimlar orqali kichik va o'rta bizneslar ham global miqyosda raqobatlasha olishadi. Umuman olganda, raqamli platformalar iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni tubdan o'zgartirib, samarali, moslashuvchan va innovatsion tarmoqlarni yaratadi. Ular ish imkoniyatlarini kengaytiradi, xizmatlar sifatini oshiradi, va global iqtisodiyotda raqobatni kuchaytiradi. Bu platformalar raqamli iqtisodiyotning asosiy motorlaridan biriga aylangan va kelajakda yanada kengayib, yangilangan yondashuvlar va imkoniyatlar yaratishda davom etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Абдуллаева, Ҳ. Н. (2024). МАХАЛЛИЙ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИДА МАРКЕТИНГ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING ISSN: 2996-5128 (online) | ResearchBib (IF) = 9.918 IMPACT FACTOR Volume-2| Issue-5| 2024 Published: |30-12-2024| 800 АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ ВА УНИГ САМАРАДОРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИ. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(05), 1-9.
3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION MARKETINGDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. European Journal Of Business Startups And Open Society, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREASING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh.B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 482-489.
7. Niyozova, I. N., & Shodibekov, U. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOJXONA TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISH. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 5(40), 619-623.
8. Niyozova, I. (2023). Digitalization-Merits And Demerits On The Whole Society. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 38(38).
9. Tairova, M. M., Narzullayeva, G. S., & Odinayeva, N. F. (2021). Foreign Experience in Ensuring High Competitiveness of Economists in Higher Education.
10. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 371-376.
11. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2023). Audit and Marketing Audit in Small Business and Private Entrepreneurship: The Order and Process of Inspection.
12. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSH-LIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Indexing, 1(1).
13. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURSLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.
14. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 35(35).